

HINDISTON TARIXINI O'RGANISHDA KALILA VA DIMNA ASARINING O'RNI

Ergasheva Mahbubaxon O'ral qizi

Nizomiy nomidagi O'Zmpu Tarix fakulteti Tarix yo'nalishi 201-guruh talabasi

Anotatsiya: *Ushbu maqolasda sharq adabiyotining durdonasi bo'lgan, hind faylasufi Beydabo tomonidan podsho Doshbalimga atab yozilgan "Kalila va Dimna" asarining kelib chiqish tarixi, tarjima jarayonlari hamda uning g'oyaviy-ma'aviy mazmunining ilmiy tahlili olib boriladi. Maqolani o'qish davomida siz ramziy obrazlar orqali insoniy fazilatlar va davlat boshqaruvi bilan bog'liq muhim masalalar qanday yoritilgani haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lasiz.*

Kalit so'zlar: *Hindiston, Kalila va Dimna, faylasuf, "Panchatantra", shag'ol, Shatraba, arab xalifaligi, masal, Nil, zohid, brahman, latcha, Kazrun.*

Sharq mumtoz adabiyotida pand-nasihat, axloqiy va falsafiy qarashlarni badiiy shaklda ifodalovchi asarlar muhim ahamiyat kasb etadi. "Kalila va Dimna" ham shunday asarlardan biri hisoblanadi.

Asarning dastlabki manbai qadimgi Hindistonda Vishnusharma tomonidan miloddan avvalgi III-II asrlar orasida sanskrit tilida yozilgan "Panchatantra" deya etirof etiladi. Bunga sabab "Panchatantra" da ham hayvonlar obrazi orqali insonlar orasida ro'y beradigan voqea va hodisalar bayon etilgan. Beydaybo ham aynan hayvonlar obrazidan keng foydalanadi.

"Kalila va Dimna" ning muallifi qadimgi hind diyorida faylasuflik bilan kun kechirgan, donolikda tengsiz sanalgan Bedaybo ismli shaxsdir. Ali ibn ash-Shoh Forsiyning naql qilishicha, faylasuf quidagi sabablarga ko'ra hind podshohi Dobshalimga atab "Kalila va Dimna" kitobini yozgan: Iskandar Zulqarnayn g'arb davlatlarini bosib olganidan so'ng sharq davlatlari tomon o'z yurishlarini boshlaydi.

U dushmanlari mag'lubiyatga uchramaguniga qadar jang qilishdan to'xtams, g'alaba qozonganidan so'ng esa mamlakatda o'z vakillarini qoldirib, yurishlarini davom ettirar edi.

Eroniylarni bo'ysundirgach Zulqarnay o'z etiborini Hindistonga qaratadi hamda qo'shinlari bilan Hindiston tomon yurish boshlaydi. Forek ismli kuchli botir bilan bo'lib o'tgan asosiy janglardan so'ng g'alabani qo'lga kiritgan Iskandar Zulqarnay Hindistonga o'z noibini qoldirib, Xitoy tomon yurish boshlaydi (1).

Hind aholisi Zulqarnay qoldirgan noibga bo'ysunishdan bosh tortadi hamda qo'zg'olon ko'tarish yo'li bilan Doshbalim ismli shaxzodani taxtga chiqaradilar. Doshbalim avvaliga oqilona hukmdorlik qilib, mamlakatni og'ir ahvoldan olib chiqadi. Ammo taxt ko'zlarini ko'r qilgan podsho xalqqa zulm qilib, ko'ngli tusagan ishlarni qila boshlaydi. Bundan norozi bolgan aholi Beydaybo ismli faylasufni shox huzuriga yuborib, Doshbalimga xalqning ahvolini yetqazish buyuriladi. Beydaybo ham shoh xuzurida uning xalqi undan noroziligini, dono shohlar xalqning rayiga qarshi

chiqmasliklari kerakligini aytib, shohga nasihatlar qiladi. Biroq Beydayboning so'zlari Doshbalimning qahrini qo'zg'atib, uni zindonga tashlashlarini buyuradi. Bir muncha vaqtdan so'ng esa bundayin dono insonni o'ziga vazir qilib olish niyati paydo bo'lgan Doshbalim Beydayboni zindondan ozod etib, o'zining vaziri deya e'lon qiladi. Shu tariqa shoh va Beydaybo orasida mustahkam aloqalar o'rnatiladi. Kunlarning birida Doshbalim vaziri Beydayboga o'zi uchun kitob yozib berishini buyuradi. Beydaybo o'zining eng istedadli shogirti bilan birgalikda 1 yil mobaynida uzlatga chekingan xolda nomini dunyoga tanitgan, 14 bobdan iborat "Kalila va Dimna" asarini yozib tugatadi.

Keyinchalik asar Eron shohi Anushiravon(531-579) davrida saroy fuzalolaridan biri bo'lmish Bazruya hakim tomonidan yashiricha Eronga keltirilib, pahlaviy tilga tarjima qilinadi. 570-yilda esa pahlaviy tilidan suriya tiliga Bud ismli shax tomonidan o'giriladi. Asl nusxa va pahlaviycha tarjimasi yo'q bolib ketishiga qaramay, suriya tiliga qilingan tarjimasi orqali Abbosiylar xalifaligi davrida donishmand olim, kotib bo'lib ish yuritgan Abdulla ibn al-Muqaffa tomonidan arab tiliga tarjima qilinishi asarni dunyo bo'ylab tkeng tarqalishiga saba bo'ladi (2).

Ana endi "Kalila va Dimna" asaridagi voqealarni tahlil qilsak ham bo'ladi. Kitobning ilk bobi Kalila va Dimna ismli shog'ollarning o'rmon shohi huzurida davlat ishlarni olib borib, xiyla-nayrang yo'li bilan sherning eng yaqin do'sti bo'lmish Shatraba ismli buqani o'ldirtirganligi va bu yo'lda qanday voqealar sodir bo'lganligi haqida hikoya qilinadi. Voqealar rivojiga ko'ra Shatraba o'rmonga kelib qolgach, sher bilan juda ahil-inoq bo'lib ketishadi. Ammo makkor Dimnaga bu yoqmaydi va turli yolg'on gap, so'zlar bilan Shatrabani sherga yomonlab, ular orasiga nizo urug'larini sepadi. O'zining donoligi bilan nom tanitgan Kalila esa bu ishlari yaxshilik bilan tugamasligini, uning qilayotgan ishlari gunoh ekanligini turli yo'llar bilan do'stiga tushuntirishga harakat qiladi. Ammo Dimna uning so'zlariga quloq solmay, Shatrabaning sher tomonidan nohaq o'ldirilishiga sababchi bo'ladi. Keyinchalik podsho o'z ishidan afsuslanib, surishtiruv ishlarini olib borib, Dimnaning qilmishlaridan bohabar bo'ladi. Bundan qazablangan sher va sudyalar Dimnani sud qilib, uni o'lim jazosiga hukm qiladilar. Shu tariqa o'zining qing'ir ishlari tufayli Dimna bu hayotdan ko'z yumadi.

Beydaybo bu bob orqali do'stlik eng muhim hislatligini, agarda do'stlar orasiga fitnachi insonlar shubha-gumon urug'ini sochsals, do'stlik ayanchli yakun topishi mumkunligi haqida hikoya qiladi. Dimna obrazi orqali faylasuf hasad va yolg'on insonni ne ko'ylarga solishi mumkunligi ko'rsatib berilgan. Kalila obrazi orqali esa inson doim to'g'ri yo'l ko'rsatuvchi insonlarning maslahatiga amal qilishi kerakligi ko'rsatib berilgan. Bundan tashqari asarda adolat tushunchasi muhim ahamiyat kasb etadi. Shoxning Dimnani sud qilib, o'limga hukm qilishi adolat hamisha g'alaba qozonishi sifatida tasvirlangan. Shu bilan birga hukmdorlarning mas'uliyat bilan qaror qabul qilishlari ham davlat hayoti uchun juda zarurligi yaqqol ko'rsatib berilgan. Beydaybo bu bob orqali sadoqat, do'stlik, adolat va oqillik kabi tushunchalarni insonlar ongiga yetkazishga harakat qilgan.

Bundan tashqari “Maymun va toshbaqa”, “Chinkabutar, qarg’a, sichqon, toshbaqa va ohu” haqidagi boblarda ham do’stlik va xiyonat haqida hikoya qilinadi.

“Kalila va Dimna” dagi yana bir mashhur bob bu “Qarg’a va boyqushlar” haqidagi hiloyadir. Bunga ko’ra qarg’a va boyqushlar azaldan bir-birlariga dushman bo’lishadi. Kunlarning birida boyqushlar o’z podshosi Shaboxang boshchiligida qarg’alar saltanatagiga hujum qilib, ko’plab qarg’alarni qirib tashlaydilar. Bo’lib o’tgan voqeadan so’ng ulaning podshosi Firuz majlis qilib, o’zining eng dono vaziri Korshinosning rejasi bo’yicha qasos olishni maqsad qilishadi. Rejaga ko’ra Korshinos o’zini qarg’alar tomonidan quvg’in qilingan qilib ko’rsatib, boyqushlar ishonchiga kirib oladi. So’ng podsho Shaboxangning laqmaligidan foydalanib, qarg’alarni bosib olish bahonasida barcha boyqushlarning o’zlarini o’zlari nobud qilishlariga erishadi. To’g’ri Shaboxangning vazirlaridan biri doim Korshinosga ishonmaslik lozimligini, u josus ekanligini takidlaydi. Ammo uning so’zlariga hech kim ertibor bermaydi va oxir oqibat o’zlari afsuslar ichra qoladilar. Qarg’alar esa adabiy tinchlikka erishishadi.

Yuqoridagi hikoya orqali muallif har qanday vaziatda ham taslim bo’lmaslik lozimligini, eng dono insonlar hamisha dushmanlarga qarshi chora tadbir topa bilmog’i kerakligi ifoda etilgan. Beydaybo vazir Korshinos obrazi orqali aql hamisha g’alaba qozonishini, aqlli insonlar hech qachon hayotda qoqilmasligini ko’rsatib bergan. Shaboxang personaji orqali esa shuxratparast, boshqalarning maslahatlariga amal qilmaydigan nodon kishilar bu hayotda doim sinovlarga duchor bo’lishini halqqa ko’rsatishga harakat qilgan. Bundan tashqari ushbu bobning yana bir muhim qismi shundaki, hikoyada qadimgi Kashmir haqida ham biroz malumotlar uchragan. Unda yozilishicha o’sha davrda Kashmir gullab yashnagan va aholi asosan savdo ishlari bilan mashg’ul bo’lishgan. Hukmdorlarning bir nechta joriya va kanizaklari bo’lganligi ham yo’zib o’tilgan. Demak bu bob nafaqat ilmiy, balkibir muncha tarixiy ham hisoblanadi.

Asardagi “Zohid va mehmon”, “Sher va shog’ol” hamda “Sayyoh va zargar” haqidagi boblar ham donolik va nodonlik hislatlariga bag’ishlangan.

Bulardan tashqari kitobda yana ko’plab pandoma hikoyalar bor. Ular orasida “Bilol va brahmanlar” hikoyasi ham juda mashhurlikka erishgan. Hikoyaga ko’ra hind viloyatlaridan birining podshosi Hemlon tunda 7 ta juda qo’rqinchli tush ko’rib, 7 martda uyg’onib ketadi. Tushining tabirini bilish uchun chaqirgan brahmanlari unga fitna uyushtirishni reja qilib, xato tabirni aytadilar. So’ng keladigan kulfatni bartaraf etish uchun eng yaqin insonlarini o’ldirishi kerakligi aks holda o’zi halok bo’lishi mumkunligini bayon etadilar. Shoh bu gaplardan so’ng tushkunlikka tushib qoladi va hech kim bilan gaplashmay qo’yadi. Xattoki eng suyuqli ayoli Eronduxtga ham hech bir so’z aytmaydi. Bunday havotirga tushgan Eronduxt shoxning eng zukko vaziri Bilol bilan gaplashib ko’rishga, uni shoh bilan nima voqea sodir bo’lganligini aniqlatishga qaror qiladi. Bilol ham barcha voqealrdan xabar topgach Hemlonga tush tabirini bexato aytuvchi, tog’ning cho’qqisida istiqomat qilib kelayotgan Koridun hakim qoshiga borishni maslahat beradi. Shoh uning aytganlarini qilib, tushining asl tabirini bilib oladi. Unga fitna uyushtirgan brahmanlarni esa yoqib yuborishlarini buyuradi.

Shu tariqa Hemlon o'zining dona ayoli va zukko vaziri yordamida noto'g'ri qaror qabul qilib, butun umr pushaymon o'tishdek og'ir musibatdan qutulib qoladi.

Bu hikoya ham har qanday vaziatda dushman so'zlariga ishonmaslik va yaqin insonlar bilan birga qaror qabul qilish kerakligini biz kitobxonlar uchun yozib qoldirgan. Bundan tashqari hikoyaning yana bir muhim tarixiy hislati shundaki, shox Hemlon hakim huzuriga borganida Koridun tushining tabirini aytayotib Nohavand, Balx, Chin, Kazrun, Butxonagar va Azran kabi mamlakatlardan elchilar kelishini bashorat qiladi. Demak o'sha davrda Hindiston ushbu malakatlar bilan qizg'in savdo aloqalarida bo'lib, bir birlariga doimiy elchilar yuborib turganlar. Ushbu malumot ham asarning tarixiy qiymatini yana bir karra oshiradi (3).

Beydayboning "Kalila va Dimna" asarida yana ko'plab hikoya va malumotlar mavjud. Ularning har biri o'sha davr hind tarixi va madaniyatini o'rganishda juda katta ahamiyat kasb etadi.

Shuni ham aytib o'tish lozimki, "Kalila va Dimna" nafaqat hind diyorida, balki sharq va g'arb olamida ham juda katta mashhurlikka erishgan. Shu bois ko'plab tarixchi va olimlar ushbu asarni keng ko'lamda tahlil qilganlar. Misol uchun mashhur ingliz sharqshunos olimi Edward Browne o'zining "A literary history of Persia" kitobida mazkur asarni bir necha bor tilga olgan. Uning so'zlariga ko'ra "Kalila va Dimna" al-Muqaffa tomonidan arab tiliga tarjima qilinishi ushbu pandnoma asarning butun Sharq va keyinchalik Yevropa adabiyotida keng tarqalishiga asos bo'lgan. Kitob sharq adabiyotiga xos juda muhim falsafiy va siyosiy asar bo'lib, o'sha davr davlat boshqaruvida foydalanish uchun ham asosli manba bo'lib hizmat qilgan. U asarning dunyo bo'ylab qay tartibda tarqalganligini ham qisman bayon etgan (5).

Fors va tojik adabiyoti tarixini yoritgan Bertels o'zining "История Персидско-Таджикской Литературы" asarida "Kalila va Dimna" ning kelib chiqishi va tarjima tarixi juda aniqlik bilan yozib qoldirgan. Bundan tashqari pandnomaning tuzilishi va uslubi haqida ham alohida to'xtalib o'tgan. Undagi asosiy g'oya davlat boshqaruvi, do'stlik-dushmanlik munosabatlari va adolat masalalari ekanligi ham uning kitobida yozib o'tilgan (6). Yana ko'plab tarixchi va olimlar ham asarning tarixiy ahamiyati haqida so'z yuritishgan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, "Kalila va Dimna" asari Sharq mumtoz adabiyotida axloqiy va falsafiy pandnoma sifatida alohida o'rin tutadi. Asardagi ramziy hayvonlar orqali esa inson tabiatidagi axloqiy, ijtimoiy va siyosiy muammolar yoritilgan. Dimna obrazi mansabparastlik, yolg'on va xiyonatning oqibatlarini, Kalila esa adolat, sadoqat va halollikning ahamiyati sifatida tasvirlangan. Asarda davlat boshqaruvi, hukmdorlarning qaror qabul qilishidagi mas'uliyati, vazir va brahmanlar faoliyati haqidagi tarixiy ma'lumotlar ham uchraydi. Shuningdek, asar o'rta asrlar Hindistoni va Xitoy bilan elchilik aloqalari, diplomatik munosabatlar hamda savdo-sotiq masalalariga oid noyob faktlarni beradi. Abdulla ibn al-Muqaffaning arabcha tarjimasi orqali asar Sharqdan G'arbga tarqalib, dunyo adabiyotida keng o'rin egallagan.

Kitobdagi – “Sher va shog’ol”, “Qarg’a va boyqushlar”, “Zohid va mehmon” kabi boblar orqali do’stlik, sadoqat, aql va adolat masalalari badiiy asosda ham ochib berilgan.

Shu bois, “Kalila va Dimna” nafaqat Hindistonning tarixiy va madaniy merosi, balki Sharq va G’arbning axloqiy-falsafiy an’analari bilan tanishish uchun muqaddas ilmiy manba sifatida qadrlanadi. Bundan tashqari har davrda, ayniqsa so’ngi yillarda uni tadqiq etish ishlari keng miqyosda ilmiy darajada olib borilmoqda.

Asrlar davomida o’z mazmun va ahamiyatini yo’qotmagan, insonlar uchun muhim axloqiy-tarbiyaviy turkumdagi ushbu asar bugungi davrda ham kitobxonlar uchun o’rnak manbai bo’lib xizmat qilib kelmoqda. Undagi band-nasihatlarni tushunish uchun esa kitobni qunt ila o’qish zarurdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. “Kalila va Dimna (Hind xalq eposi)” – Toshkent, 2019-yil – 8-29 sahifalar.
2. Ibn al-Muqaffa— “Kalila and Dimna” — Qohira, 1974-yil.
3. Bertels Yevgeniy Eduardovich — “Sharq adabiyoti tarixi” — Moskva, 1962-yil.
4. Sharq xalqlari adabiyoti bo’yicha ilmiy maqolalar to’plami — Toshkent, 2015-yil.
5. Edward Granville Browne — “A Literary History of Persia” — London, 1908-yil — 76-110-275-332 sahifalar.
6. Евгений Эдуардович Бертельс — “История Персидско-Таджикской Литературы”— Moskva, 1960-yil — 140-141 sahifalar.
7. Xayriddinovna Mohigul Fazliyeva — “Kalila va Dimna” asarining qo’lyozma va toshbosma nusxalari tasnifi.